

**“BOBURNOMA” ASARIDA TABIAT TASVIRINING ILMIY****AHAMİYATI****SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE DESCRIPTION OF NATURE IN
“BABURNAME”**

Maxmudova Nodira Abduvoxit qizi, magistr, yetakchi mutaxassis

O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi

Rahmonov G’ulomjon Rahimjon o‘g’li, mutaxassis

O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi

Annotatsiya: *Ilm-fan olamida har bir manba o‘z o‘rniga ega. “Boburnoma” asarida ham tabiiy fanlar uchun qimmatli ma’lumotlar mavjud. Bu asarda, ayniqsa, Mirzo Bobur yashab o‘tgan va hayoti davomida sayohat qilgan hududlarning botanika, jug‘rofiya, ma’danshunoslik, ekologiya kabi fanlarga aloqador ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ularni tadqiq etish kelajakda tabiiy fanlar sohasida ilmiy izlanish olib boradigan olimlar uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, Mirzo Bobur, tabiat, Hindiston, fitonim, Farg‘ona vodiysi, ekologiya, jug‘rofiya, tarix.

Annotation: *In the world of Science, each source has its own place. The work “The Boburname” also contains valuable information for the Natural Sciences. The work contains information related to disciplines such as botany, geography, mining, ecology, especially those of the regions where Mirzo Babur lived and traveled throughout his life, the research of which is important for scientists who will conduct scientific research in the field of Natural Sciences in the future.*

Kalit so‘zlar: “The Boburname”, Mirzo Bobur, nature, India, phytonym, Fergana valley, ecology, geography, history.

“Boburnoma” taxminan, 1518-1519-yillardan boshlab 1530-yilgacha yozilgan jahon adabiyotining muhim va noyob durdonasi. Davlat arbobi, shoir, tarixchi va tabiatshunos sifatida mashhur bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur



tomonidan o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan o‘zbek adabiyotining ilk nasriy memuarlaridan biri. Ushbu asar “Boburiya”, “Voqeozi Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham mashhur. Unda muallifning O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda yashagan davrlarida sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar, hududlarning tabiat olami, hamda muallif hayoti va siyosaiy faoliyati xronologik tarzda o‘ta aniqlik bilan bayon etilgan. Boburnoma asarida, ijtimoiy-tabiyy fanlar, tabiatshunoslik, jug‘rofiya, ma’danshunoslik, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hali-hanuz o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Mirzo Bobur o‘zining sayohatlari, janglari va turli mamlakatlarga qilgan safarlari davomida o‘zining atrofidagi tabiiy muhitni har taraflama o‘rgangan va tasvirlagan. “Boburnoma” dagi tabiiy tasvirlar nafaqat tarixiy asar sifatida, balki ekologiya, geografiya va tabiatshunoslik fanlarida ham ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, “Boburnoma”da keltirilgan tabiiy tasvirlarning ilmiy ahamiyati va ularning bugungi kunda qanday ilmiy tadqiqotlar uchun foydali ekanligi tahlil qilinadi. Bobur tabiat shaydosi edi, u bog‘lar barpo etish, Hindistonda ham shirin qovunlar yetishtirish, uzumzorlarni bunyod etishni orzu qildi, chunki bunday ne’matlar Hindistonda mavjud emas edi [D.Muhammadiyeva, 2025]. Ma’lumki, – “Boburnoma” chig‘atoy-turkiy tilida yozilgan va unda arab, fors va hind tillaridan ham keng foydalilanilgan. Ushbu tarixiy-madaniy meros XIV–XVI asrlar davri tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi va uni har tomonlama tadqiq qilish, chuqur o‘rganish zarurligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qarorida ham o‘z aksini topgan [A.Sharipov, 2024; Мирзиёев Ш.М., 2017].

Bobur o‘z asarida yashab o‘tgan hududlarining tabiatini va iqlimining ilmiy tasvirini keltirgan. Ya’ni, hududlaridagi iqlimni, o‘zgaruvchan ob-havo sharoitlarini va ularning hayotga ta’sirini chuqur tahlil qilgan. Masalan, Bobur o‘zining Hindistonga qilgan safarida, mamlakatning issiq iqlimi, yillik yomg‘irlar, va turli fasllardagi o‘zgarishlar haqida batafsil ma’lumotlar keltiradi. U



Hindistonning tropik iqlimi, musson yomg‘irlari, va bu iqlimning aholining kundalik hayoti va qishloq xo‘jaligiga ta’sirini aniq tasvirlagan. Bobur bu hududda yashovchi odamlar va ularning hayot tarziga tabiiy sharoitlarning qanday ta’sir qilishini ham o‘z kuzatishlari asosida ifodalagan.

“Boburnoma” ning iqlim haqidagi tasvirlari bugungi ekologiya va iqlimshunoslik uchun qimmatli tarixiy manba hisoblanadi. Boburning kuzatishlari va ularning ta’sirini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, iqlim o‘zgarishlari va inson faoliyatining ekologiyaga bo‘lgan ta’siri haqida muhim bilimlarni kashf qilishga yordam beradi.

Mirzo Bobur jug‘rofiya ilmiga ham xissa qo‘shgan. U o‘zining safarlari davomida ko‘plab geografik hududlarni o‘rganib, ularning tabiiy landshaftlari haqida tasvirlar yaratgan. “Boburnoma” da, masalan, Afg‘onistonning tog‘li hududlari, Hindistonning keng o‘rmonlari va dalalari, va boshqa o‘lkalar o‘rtasidagi tabiiy farqlar haqida aniq tavsiflar mavjud. Bobur bu joylarning geografik xususiyatlari, tuproq turi, o‘simplik va hayvonot dunyosi haqida ma’lumotlar beradi.

Bundan tashqari, Bobur geografik joylashuvlarning inson hayoti va iqtisodiy faoliyatiga qanday ta’sir qilishini ham o‘rganib, bu haqda batafsил fikrlar bildirgan. Uning geografiya va tabiiy landshaftlarni tasvirlash usuli, o‘z vaqtida, butun O‘rta Osiyo va Hindiston mintaqalarini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lgan. Bugungi kunda, “Boburnoma” dagi geografik tasvirlar, tabiiy resurslar va landshaftlar haqidagi ma’lumotlar, geologiya, geografiya va ekologiya sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib boorish uchun foydalaniлади.

Bobur asarda botanika fani uchun o‘ta qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Asarda ko‘plab o‘simpliklar, daraxtlar va hayvonot dunyosi haqida ko‘plab m’lumotlar beradi. Bobur Hindiston va Afg‘onistonning tabiiy boyliklari, o‘simpliklarning turlari va ularning inson hayoti uchun ahamiyati haqida batafsил ma’lumotlar keltirilgan. Misol uchun, asarda ko‘plab dorivor o‘simpliklarning xususiyatlari bayon etilgan, ayrimlarining xattoki tibbiyotda qo‘llanilishi ham tasvirlangan. Bunday qimmatli ma’lumotlar o‘simpliklar va ularning tibbiy

xususiyatlarini o‘rganadigan botanik va dorishunos olimlar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Shu bilan birga, Bobur o‘zining bayonlarida ekologik muvozanat va tabiiy resurslarning o‘zaro bog‘liqligiga ham urg‘u berib o‘tgan. O‘simliklar va hayvonot dunyosi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni tushunish, tabiiy muhitni asrash va ekologiya fanini o‘rganish uchun beqiyos ilmiy ahamiyatga ega. Mirzo Bobur asarida hayvonot va nabobot olamini chuqur ilmiy izohlar bilan keltirib o‘tgan. Hindistonda o‘sadigan ayrim fitonimlar ilk bor – “Boburnoma” asarida keltirilgan. Asarda keltirilgan fitonimlar orasida daraxt nomlari eng ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu esa biologiya sohasi uchun juda qimmatli va o‘z qiymatini hech qachon yo‘qotmaydigan ma’lumot. Asarda keltirilgan daraxt nomlarini o‘z navbatida quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Mevali daraxt nomlari:** anjir: ...mevasi daraxtining tanasidin chiqar, anjirga uxshar. Gular g‘arib bemaza mevadur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; funduk (yang‘oq): ...ichida fundukdek-fundukdek donalari bor; tut: ...bori yafroqlardin tut yafrog‘i va qaroyig‘och yafrog‘i otqa sazvorroq emish [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; olma (Sebi Samarqand, qizil olma navlari): ...sardseriy mevalardin uzum va anor va o‘ruk va olma va bixi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang‘oq ko‘ptur, Vale ikki meva Samarqandtin mashhurdur: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand (“Boburnoma”, Yana paniyaladur, oluchadin ulug_roqtur, qizil olmaning g‘o‘rasiga shabihdur, turshkina mazasi bor, yaxshiginadur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; uzum (obi angur, Kobul uzumi, G‘azni uzumi, qora uzum, husayni uzum, kishmish kabi uzum navlari): Bir nav’ uzum bulur, obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdir. Mast chog‘irlari bo‘lur. Xuroson 307 navohisining noranjiga hech nisbati yo‘qtur. Nozuklugidindurkim, Lamg‘onottin Kobulgachakim, o‘n uch-o‘n to‘rt yig‘och bo‘lgay, kelturguncha ba’zi noranjlar xarob bo‘lur. Astrobod noranjini Samarqanddakim, ikki yuz yetmish-ikki yuz sekson yig‘och bo‘lgay, eltarlar, terisining qalinligidin va kamoblig‘idin oncha xarob bo‘lmas. Bajavr noranjlarining ulug‘ligi bihicha bo‘lur, suvi ko‘ptur va o‘zga noranjlarning suvidin



turshroqtur. Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichiga mag‘z solib quruturlar, «subhoni» derlar, bisyor lazizdur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; anba: Hinduston maxsusidur, biri anbadur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; limu (galgal limu, uluq limu kabi navlari): Yana noranj mushobahati mevalardin uluq limudurkim, Hindustonda galgal limu deydurlar [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008];

2. Mevasiz, maishiy hayotda foydalaniladigan daraxt nomlari: balut, bodomcha: ...o‘tunlari xanjaq va balut va bodomcha va qarqanddur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; chinor: Chashmaning o‘rtasida qalin chinor daraxtlaridur, latif soyasi bordur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; tol: Sufaning girdida tamom tol daraxtlari ekildi [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; terak: andin Feruza darvozasig‘acha xiyobon kilib, ikki tarafida terak yig‘ochlari ekturubtir [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008];

3. Manzarali daraxt nomlari: norvan, sarv: Chorbog‘da ham martabamartaba

yerlarni siyok bila tuzatib, yaxshi norvanlar va sarv va safedorlar tikibturlar, xeyli saromad manzilidur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; archa: Andarob va Xost va Badaxshon tog‘lari tamom archalik, qalin chashmalik, yumshoq pushtalik tog‘lardur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008].

4. Buta va butasimon daraxt nomlari: bodom: ...musmir daraxtisi bisyordur, vale bog‘chalarida aksar bodom daraxtidur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]; jika: Yana karundadur, bizning viloyatning jikasi yo‘sunliq, buta-butga bo‘ladur. Jika tog‘larda bo‘lur. Bu dashtlarda bo‘ladur [C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]. Fitonimlarni o‘rganishda – “Boburnoma” asarining o‘rni beqiyos. Boburning ekologiya haqida yozganlarini o‘qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o‘ylaysiz. Darhaqiqat, —Boburnoma ni o‘qiganda unda bayon qilingan joylarning ekologik holati, ya’ni o‘sha diyorning o‘simplik dunyosi, hayvonot olami, qushlari, yeri, obi-hayoti, iqlimi, giyohlari, meva-chevasi xususida tarixiy va ekologik nuqtainazardan bugungi kun uchun ham ahamiyati qimmatli bo‘lgan aniq ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Xususan, – Boburnoma ni nabobat



olamiga oid sermazmun asar deyish o‘rinlidir [G.Rasulova 2024; C.Хасанов, 2002; B.Рахмонов, 2008]. “Boburnoma”da Farg‘ona vodiysining boy, sermahsul tabiatini hamda ekologiyasiga juda katta ta‘rif berilgan. Unda ko‘rsatilishicha – Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma’muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma’mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyg‘a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoliy Fanokatning janubiy tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas [Mirziyoyev Sh., 2017; Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989; Zahiriddin Muhammad Bobur, 2015].

“Boburnoma”da jug‘rofik joylar ekologiyasi va ularning tabiatini to‘g‘risida fikr yuritilib, vodiy aholisi yashash sharoitlariga qarab viloyat, o‘rchin, qasaba, kent, qo‘rg‘on, mahalla tarzida ifodalanadi. Viloyatlar sifatida Farg‘ona, O‘s, Isfara va Qorategin tilga olinadi. O‘rchin atamasi viloyatdan kichik, qasabadan kattaroq hududga nisbatan qo‘llanib, asarda Raboti Sarxang, Rabatak, O‘ratepa, Xo‘qon, Olayluq singari o‘rchinlar qayd qilingan. Bobur Farg‘ona vodiysidagi asosiy shaharlarni qasaba deb atagan. Qasabalar, ya’ni shaharlar yettita bo‘lib, ulardan beshtasi: Andijon, Marg_inon, Isfara, Xo‘jand, Kandibodom Sirdaryoning janub tomonida, ikkitasi Axsi va Koson daryosining shimol tomonida joylashgan. “Boburnoma” da bu joylarning tabiatini, havosi, suvlari, hayvonoti va o‘simliklariga ajoyib ta‘rif berilgan [A.Mamajonov, 2024].

“Boburnoma”dagi tabiiy tasvirlar faqat tabiatni tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil etadi. Bobur, o‘z asarida, tabiiy muhitning inson hayoti va faoliyatiga qanday ta’sir



qilishini, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi. U, masalan, iqlimning qishloq xo‘jaligiga ta’siri, o‘simliklarning ozuqaviy qiymati, va tabiiy resurslarning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasini tasvirlaydi. Bu tasvirlar ekologik va ijtimoiy tahlil uchun muhimdir. Tabiatning inson hayotiga ta’siri va uning qanday o‘zgarishi haqida Boburning yozganlari ekologik siyosat va barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilish uchun qimmatli ma’lumot manbalaridan biridir.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari faqat tarixiy va adabiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki tabiat olami va uning inson hayotiga ta’siri haqidagi ilmiy izlanishlar uchun ham noyob manba hisoblanadi. Bobur o‘z asarida tabiatni, iqlimni, geografiyani, o‘simliklar va hayvonot dunyosini ilmiy nuqtai nazardan tasvirlab, ekologiya, geografiya, botanika va boshqa ilmiy sohalarda tadqiqotlar olib borishga katta hissa qo‘shgan. Shuning uchun, “Boburnoma” bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli manba sifatida o‘rganilishi davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Mamajonov, G.Axmedova, A.Alisherov, “Boburnoma”da O‘sh qasabasi ekologik holatining ta’rifi «Бабурнамэ»де Ош шаарынын экологиялык абалынын сүрөттөлүшү // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni, uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari: Toshkent – 2024 – 201-206 b.
2. A.Sharipov, “Boburnoma” da Panjob viloyatining tarixiy geografiyasi / “Boburnoma” of the Punjab region historical geography // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni, uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari: Toshkent – 2024 – 221-238 b.
3. D.Muhammadiyeva, N.O‘ktamova, Boburiylar imperiyasida fan va san’at taraqqiyoti // The Development of Science and Art in the Mughal Empire,



ilmiy electron jurnal / ASSN: 3030-3451 – 2/2025 – 535-541 b.

4. G. Rasulova, “Boburnoma” asarida uchraydigan daraxt nomini anglatuvchi fitonimlar Phytonyms meaning the name of a tree found in “Boburnoma” // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni, uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari: Toshkent – 2024 – 305-308 b.
5. Mirziyoyev, Sh. 2017. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: — O‘zbekiston.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. 1989. Boburnoma. –Toshkent: –Yulduzcha.8
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2015. Boburnoma. –Toshkent: –Yangi asr avlodi.
8. Бобур, Захиридин Мухаммад. 2002. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Сайдбек Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ
9. Бобур, Захиридин Мухаммад. 2008. «Бобурнома» Нашрга тайёрловчи В.Раҳмонов. – Тошкент.
10. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – Эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суюнчимиздир. – “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. Халқ сўзи // 2017:1 июл.